



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific  
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 2

Published: 10.02.2025  
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

### O'RTA ASR SHAHARLARI VA ULARNING SANOAT VA SAVDO YO'LLARIDAGI RO'LI

**Bobonazarova Madina Baxtiyor qizi**

Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti

Tarix ta'lim yo'nalishi Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti

2- bosqich 2.23-guruh talabasi

**Uzbekistan**

[bobonazarovamadina@gmail.com](mailto:bobonazarovamadina@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davri shaharlar tarixini o'rganishda arxeologik tadqiqotlar, tarixiy ma'lumotlar, tarixiy manbalar, arab va xitoy manbalarining muhim o'rin haqida. O'rta asr shaharlarining rivojlanishi, ularning iqtisodiy va madaniy hayotdagi ahamiyati hamda sanoat va savdo yo'llaridagi roli tahlil etiladi. Shaharlarning shakllanish omillari, geografik joylashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi yoritilib, ularning savdo markazi sifatida tutgan o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, karvon yo'llari, bozorlardagi faoliyat va hunarmandchilik markazlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada O'rta asr shaharlarining mahalliy va xalqaro savdodagi o'rni hamda ular orqali iqtisodiy aloqalarning kengayishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** arxeologiya, manba, kashfiyot, minora, iqtisodiyot, moddiy manbaa, ma'naviy manbaa, shaharsozlik.

**Аннотация:** в статье говорится о важном месте археологических, исторических данных, исторических источников, арабских и китайских источников в изучении истории современных и средневековых городов Центральной Азии. Анализируется значение средневековых городов в



kuzatiladi. Shaharlar tarixini o'rganish natijasida har bir hududda aholining yashash tarzi va ularning mehnat faoliyati, shaharning iqtisodiy va madaniy sohasidagi yutuqlarni, avlodlarga qoldirilgan moddiy va ma'naviy boyliklar haqidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Talabalarda Vatanimiz tarixiga oid bilim va ko'nikmalarini yanada shakllantirish uchun mavzuni yoritishda davlatchilik va shaharsozlik madaniyati, toponimik, etnologik, etnografik, arxeologik, numizmatik ma'lumotlarga tayanib shaharlar tarixini batafsil yoritishda ularning xronologiyasiga alohida e'tibor qaratildi. Xullas, oliy o'quv yurtlari "Arxeologiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan ushbu o'quv qo'llanma O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davri urbanizatsiya jarayonlari va uning tarixiy bosqichlari bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlar berib, fan bo'yicha mustahkam ko'nikma va malakaga ega bo'lishga ko'maklashadi. Berilgan har bir mavzu so'nggida nazorat savollari va test topshiriqlari talabalarga mustaqil ravishda fikr yuritishga, mavzu bo'yicha olgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi.

Shaharlarning shakllanishida savdo-sotiq rivoji ham muhim omillardan hisoblanadi. Janubiy Turkmanistonda eramizdan avvalgi IV-III ming - yilliklardayoq dastlabki loydan yasalgan g'ildirakning paydo bo'lishi, eramizdan avvalgi III ming - yillik o'rtalarida tuyaga,

ba'zan xo'kizga qo'shilgan to'rt g'ildirakli aravalarning paydo bo'lishi, eng qadimgi savdo yo'li-lazurit yo'lining ham aynan shu davrda paydo bo'lganligi, transportning rivoji shaharlarga qishloq xo'jaligi markazi, shuningdek zaruriy hamda qo'shimcha mahsulotning taqsimlovchi manzilgoh vazifasini bajarish imkonini yaratadi. Shaharlarning shakllanishida diniy tushunchalardagi o'zgarishlar ham sabab bo'ladi. "Iloh"ga va "Ilohlr"ga sig'inishning paydo bo'lishi natijasida shaharlar nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga diniy markaz vazifasini ham bajara boshlaganlar. Jarqo'tondagi ibodotxona fikrimizning dalilidir. Shaharlarda shahar va yaqin atrofdagi qishloqlar aholisini bosqinchilardan himoya qilish maqsadida mudofaa inshootlari quriladi. Sopollitepadagi murakkab mudofa inshootlari ana shu vazifalarni bajargan. "Sivilizatsiya" - madaniyatdan farqli ravishda tarixiy tushuncha bo'lib, u kishilik taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'ladi. "Sivilizatsiya" tushunchasi insonning paydo bo'lishi bilan, neolit revolyusiyasi (ya'ni dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo'lishi) bilan va urbanizatsiya jarayoni bilan yoki davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Sivilizatsiya insoniyatning texnik-texnologik taraqqiyotdagi yutuqlari, ijtimoiy hayotdagi chuqur o'zgarishlarni aks ettiradi. Texnologik taraqqiyotdagi yutuqlari deganda: O'rta Osiyoda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik

rivoji, hunarmandchilik taraqqiyotida bronzaning kashf etilishi, charxning kashf etilishi, g'ildirak va aravaning kashf etilishi savdo-sotiqning rivojlanishi tushuniladi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar mulkiy va ijtimoiy tabaqalanishni, diniy tizim hamda hashamatli me'morchilikning shakllanishi tushuniladi. Eng qadimgi sivilizatsiyalar Misr va Messopotamiya hududlarida bundan 6-7 ming -yillar oldin paydo bo'lgan bo'lsa, O'rta Osiyo xalqlari o'z sivilizatsiya bosqichiga bronza davrida 3-3,5 ming -yil avval o'tganlar. Turkiston va O'zbekistnning janubida ilk shaharlar eramizdan avvalgi III-II ming - yillikda paydo bo'lgan 12 bo'lsa, O'rta Osiyoning shimoliy-sharqiy hududlarida bir oz kechroq, eramizdan avvalgi I ming - yillik boshlarida paydo bo'ladi. Buning asosiy sababi, bizning nazarimizda, O'rta Osiyoning shimoliy-sharqida ishlab chiqarish rivojining nisbatan sust borganligi bilan bog'liq. Ilk shaharlar hayot tarziga qisqacha to'xtalib o'tamiz: Namozgohtepa - Turkistonning janubidagi qadimgi Parfiya hududidagi eng yirik ilk shahar. Uning maydoni 70 gektarni tashkil etadi. Er. avv. IV-II ming - yilliklarga oid yodgorlik. Ko'p xonali uylardan iborat. Uylarning devori xom g'ishtdan qurilgan. Har bir uy o'zining kichik hovlisiga ega. Xonalarning ko'pi to'g'ri burchak shaklida qurilgan. Ular ichida supalar va o'choqlar bo'lgan, devorlariga tokchalar o'rnatilgan bo'lgan. Namozgohtepa sopol idishlari rangli va naqshlidir. Naqshlar ichida o'simliklar va hayvonlar rasmlari uchraydi.

Rivojlangan bronza davriga kelib (er. avv. III- ming - yillik o'rtalarida- II-ming - yillik birinchi yarmi) Namozgohtepada sopol idishlar charxda yasala boshlagan va ikki yarusli xumdonlarda pishirilgan. Kulolchilik charxi O'rta Osiyoda birinchi bor aynan shu yerda -Turkmanistonning janubida paydo bo'lgan. Jarqo'ton - Surxondaryo viloyatining Sherobod shahri yaqinida bo'lgan. Maydoni 100 gektar. Eramizdan avvalgi 2 ming -yillik o'rtalariga oid. Yodgorlik akademik A.Asqarov boshchiligidagi olimlar tomonidan o'rganilgan. Yodgorlik uch qismdan iborat: 1. Ark-5gektarni tashkil qilgan. Mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Bu yerda saroy qoldiqlari ochib o'rganilgan. U kvadrat shaklida(o'lchami 36x 36 metrga teng) bo'lib, atrofi qalinligi 4,5 metr bo'lgan mudofaa devori bilan o'rab olingan. Arkka maxsus darvoza orqali kirilgan.

Afrosiyob - er.avv. VI asrda paydo bo'lgan. Hozirgi Samarqandning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Er.avv. I ming - yillik o'rtalarida shahar 219 gektarni tashkil etgan. Shahar dastlab tuproq bilan o'rab olingan bo'lgan. Keyinchalik, xom g'ishtdan qurilgan devor bilan o'rab olingan. Devorning ma'lum joylarida o'q otish uchun mo'ljallangan shinaklar bo'lgan. Shaharning shimoliy qismida ark joylashgan bo'lib, bu qism qo'shimcha ravishda mustahkamlangan bo'lgan. Afrosiyob ilk bor yozma manbalarda 14 Marakanda nomi bilan Aleksandr Makedonskiy bosqini bilan bog'liq

voqealar munosabati bilan tilga olinadi.

Qiziltepa - er. avv. VIII-VII asrlarda aholi manzilgohi sifatida paydo bo'ladi. Er. avv. VI asrda mudofaa devori bilan o'rab olingan. Shahar ushbu davrda to'rtburchak ko'rinishga ega bo'lib, umumiy maydoni 30 gektarni tashkil etgan. Shaharning janubiy-g'arbiy qismida ark joylashgan. Uning maydoni 2 gektarni tashkil etadi.

XULOSA: Xulosa qilib aytadigan

bo'lsak, Talabalarda Vatanimiz tarixiga oid bilim va ko'nikmalarini yanada shakllantirish yoritishda davlatchilik va shaharsozlik madaniyati, toponimik, etnologik, etnografik, arxeologik, numizmatik ma'lumotlarga tayanib shaharlar tarixini batafsil yoritishda ularning xronologiyasiga alohida e'tibor qaratishdir. Negaki, o'z tarixini bilmagan insonning kelajagi ham bo'lmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ravshanov R. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. Qarshi, Nasaf, 2005
2. O'zbekiston Miliy Ensiklopediyasi. T .8.T. O'zM.E nashriyoti. 2006.
3. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing. 1996.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1- жилди. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат нашриёти”, Тошкент. 2000.
5. Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари VI-VIII асрларда. Тошкент, 2017.
6. Akhmedova, V. T. (2024). LIFE STRATEGY OF UZBEK WOMEN: FAMILY AND LABOR RELATIONS. Confrencea, 2, 66-69.
7. Maxmudova, M., & Vaziraxon, A. (2022, November). TAYANCH-HARAKATI A'ZOLARI FALAJLANGAN BOLALAR LUG'ATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. In Conference Zone (pp. 259-263).
8. Tursunboyevna, A. V. (2023, December). METHODS OF SPEECH SKILLS FORMATION IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS" (Vol. 2, No. 12, pp. 472-479).
9. Vazira, A. (2023). Methodical recommendations for bartending speech defects in children with paralysis of the members of the base movement. Confrencea, 3(03), 26-27.
10. Sobirkhanovna, M. M., & Vazirakhan, A. (2023). EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY. Open Access Repository, 4(3), 134-141.

Internet resurlari:

1. [w.w.w.ziyonet.uz](http://w.w.w.ziyonet.uz)
2. [w.w.w.tdpu.uz](http://w.w.w.tdpu.uz)
3. [w.w.w.history.ru](http://w.w.w.history.ru)